


NAMANGAN VILOYATINIG TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)

2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 219,4 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 18,1 foizga o`sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 71,4 mln.AQSh dollarga (53,0 % ga ko`paydi) va import hajmi 148,0 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 6,4 % ga oshdi) yetdi. Tashqi savdo saldosi minus -76,6 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Tashqi savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
(mln.AQSh dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo`shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo`naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida
yuqori ulushga ega davlatlar**

(ming. AQSh dollari)


Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o`zgarish sur`ati, %
Xitoy	58430,9	8774,3	49656,6	26,6	147,4
Rossiya	49089,9	29488,1	19601,8	22,4	111,1
Turkiya	23380,9	2932,1	20448,8	10,7	146,2
Qozog`iston	18739,6	8533,4	10206,2	8,5	85,7
Yaponiya	14735,6	17,4	14718,2	6,7	556,7 m
Qirg`iziston	13646,9	13047,2	599,7	6,2	5,4 m
Koreya	6617,8	0,0	6617,8	3,0	194,4
Germaniya	4726,9	1086,8	3640,0	2,2	15,4
Ukraina	3721,4	2247,3	1474,2	1,7	130,9
Litva	3118,2	25,6	3092,6	1,4	3,0 m
Hindiston	2468,4	76,5	2391,9	1,1	112,1
Latviya	2436,5	20,7	2415,9	1,1	5,0 m
Polsha	1885,8	631,8	1253,9	0,9	151,0
Eron	1847,7	501,1	1346,6	0,8	2,1 m
Argentina	1233,5	0,0	1233,5	0,6	2,7 m
Turkmaniston	1167,1	238,8	928,3	0,5	68,8
Italya	1094,1	155,3	938,8	0,5	74,3
Tayvan	995,9	214,5	781,4	0,5	5,1 m
Avstriya	971,5	16,8	954,7	0,4	98,2 m
Belarus	926,5	289,6	636,9	0,4	70,2
Malayziya	692,7	0,0	692,7	0,3	102,1
Portugaliya	597,2	597,2	0,0	0,3	100,0
Keniya	567,4	0,0	567,4	0,3	122,0
Tailand	529,4	0,0	529,4	0,2	6,1 m
Azərbayjon	473,3	372,3	101,0	0,2	100,0

EKSPORT




2019 yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 71,4 mln.AQSh dollarga (53,0 % ga ko'paygan) teng bo'ldi. eksport tarkibida tovarlarning ulushi 96,9 % ga ega bo'lib, bular asosan boshqa turdagi mahsulotlar (46,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari (28,8 %), shuningdek, mashina va asbob-uskunalar (4,4 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tuzilmasi, (foizda)

2018 yil
yanvar-mart




2019 yil
yanvar-mart



Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Eksport	71390,0	153,0	100,0	54751,5	173,7	100,0	16638,6	110,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	20580,7	238,5	28,8	18681,2	407,4	34,1	1899,6	47,0	11,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	624,1	1156,2	0,9	604,7	1649,9	1,1	19,4	0,0	0,1
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	876,1	0,0	1,2	876,1	0,0	1,6	0,0	0,0	0,0
Qora va rangli metallar	252,3	152,6	0,4	238,9	144,5	0,4	13,4	0,0	0,1
Mashina va asbob- uskunalar	3120,8	1549,3	4,4	2466,3	1224,4	4,5	654,5	0,0	3,9
Xizmatlar	2226,9	88,5	3,1	2127,6	102,3	3,9	99,3	22,7	0,6
Boshqalar	43709,1	124,6	61,2	29756,7	121,7	54,3	13952,4	131,4	83,9

Eksport tarkibi, (foizda)




Xizmatlar eksporti hajmi 2226,9 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 3,1 % ini tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5 % aga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, moliyaviy xizmatlaridan iborat.

**2019 yil yanvar-mart oyida jami eksport hajmi shahar va
tumanlar kesmida**
(ming AQSH dollari)

	<i>Yanvar-mart</i>		<i>o`tgan yilga nisbatan, %</i>
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	
Viloyat jami	46655,1	71390,0	153,0
Namangan sh	16794,5	24709,2	147,1
Mingbuloq	1011,1	243,5	24,1
Kosonsoy	2404,4	6575,3	2,7 m
Namangan	5945,4	8644,1	145,4
Norin	0,0	209,6	0,0
Pop	1581,9	1927,1	121,8
To`raqo`rg`on	5399,5	6870,9	127,2
Uychi	3054,9	3663,9	119,9
Uchqo`rg`on	5490,7	8166,8	148,7
Chortoq	68,2	1213,9	17,8 m
Chust	2200,8	3845,4	174,7
Yangiqo`rgon	1332,8	4143,0	3,1 m
Jismoniy shahslar	1370,8	1177,5	85,9

**Viloyat eksportida
asosiy hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**




Viloyatdan eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Qirg'iziston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 83,9 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston va Qirg'izistonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan engil sanoat mahsulotlari oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 148,0 mln. AQSh dollariga (o`shish sur`ati 6,4 %) teng bo`ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (47,2 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (20,9 %) hamda oziq-ovqat mahsulotlari (9,4 %) guruhlari hisobiga to`g`ri keldi.


Tovar va xizmatlar importi tuzilmasi, (foizda)



Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	ming. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	ming. AQSh doll.	o`tgani yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
Import	147981,3	106,4	100,0	33608,3	77,1	100,0	114373,0	119,7	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	13891,8	47,6	9,4	6703,7	34,6	19,9	7188,1	73,1	6,3
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	30962,1	124,0	20,9	6765,5	203,9	20,1	24196,7	111,7	21,2
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	792,8	138,5	0,5	566,1	0,0	1,7	226,7	182,2	0,2
Qora va rangli metallar	4375,4	85,3	3,0	1697,8	70,1	5,1	2677,6	98,8	2,3
Mashina va asbob-uskunalar	69816,7	119,9	47,2	3395,1	84,8	10,1	66421,5	122,5	58,1
Xizmatlar	343,6	206,7	0,2	9,7	0,0	0,0	333,9	200,9	0,3
Boshqalar	27799,0	133,1	18,8	14470,5	103,0	43,1	13328,5	195,0	11,7

Import tarkibi, (foizda)




Xizmatlar importi hajmi 343,6 ming. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 martaga oshdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, transport xizmatlari, qurilish xizmatlari xizmatlaridan iborat bo'ldi.

**2019 yil yanvar-mart oyida jami import hajmi shahar va
tumanlar kesmida**
(ming AQSH dollari)

	<i>yanvar-mart</i>		<i>o'tgan yilga nisbatan, %</i>
	<i>2018 y.</i>	<i>2019 y.</i>	
Viloyat jami	139137,7	147981,3	106,4
Namangan sh	31016,8	54307,6	175,1
Mingbuloq	71,0	136,1	191,7
Kosonsoy	1974,4	10835,7	5,5 m
Namangan	16151,6	12399,3	76,8
Norin	525,0	6602,4	12,6 m
Pop	524,0	5941,5	11,3 m
To'raqo'rg'on	56804,0	10231,7	18,0
Uychi	2658,1	13821,1	5,2 m
Uchqo'rg'on	1193,7	3691,7	3,0 m
Chortoq	1521,7	2268,8	149,1
Chust	436,7	1785,3	4,0 m
Yangiqo'rg'on	5002,2	2465,0	49,3
Jismoniy shahslar	21258,4	23495,1	110,5

**Viloyat importida asosiy
hamkor davlatlarning ulushi,
(foizda)**



2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyatga 56 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Koreya Respublikasi, Qozog'iston va Turkiya kabi hamkor davlatlarning jami import hajmi 124 889,5 ming. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 84,4 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.:71-230-84-89**